

**SA’ DIY SHEROZIYNING “GULISTON” VA SAYFI
SAROYINING “GULISTON BIT-TURKIY” ASARLARI
MUQADDIMASINING QIYOSIY TAHLILI**

Hazratqulova Shohsanam Sharofiddinovna

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs

sharofiddinovnashohsanam@gmail.com,

Dilnavoz Yusupova

Ilmiy rahbar: fil.fan.dok., prof.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada forsiygo‘y adib Sa’diy Sheroyiyning “Guliston” va uning erkin tarjimasi “Guliston bit-turkiy” asarlarining muqaddima qismlari qiyosiy tahlil qilingan. Asar va uning tarjimasi debochasidagi o‘xhash va farqli jihatlar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: debocha, hamd, masnaviy, qit’a, fard.

ABSTRACT

In this article, the introductory parts of the Persian writer Saadi Shirozi’s works “Gulistan” and its free translation “Gulistan bit-turki” are compared. Similar and different aspects of the preface of the work and its translation are highlighted.

Key words: prelude, praise, masnavi, qit’a, fard.

Sa’diy Sheroyi Sharqning daho ijodkorlari orasida eng zahmatkash, sermahsul va jahongashtasidir. U 30 yil ilm o‘rgandi, 30 yil sayohat qildi, 30 yil badiiy ijod bilan shug‘ullandi. Benazir shoir va mutafakkir Sa’diy badiiy ijodda o‘z mifiktabini yarata olgan adibdir. Uning she’riy, nasriy hikoya va masallardan tashkil topgan “**Guliston**”, “**Bo‘ston**” asarlari unga jahonshumul shuhrat keltirdi. Bu kitoblar o‘zining didaktik xususiyati, yozilish uslubi jihatidan adabiyot ahlining diqqatini tortib kelgan. Buni asarning turkiy adabiyot vakillaridan biri Sayfi Saroij tomonidan erkin tarjima qilinganligida ham ko‘rishimiz mumkin. Sayfi Saroijning tarjima uchun aynan ushbu kitobni tanlashiga yana bir sabab “Guliston” O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan, o‘tmishda bu kitobdan darslik sifatida ham foydalanilgan. Asar Sayfi Saroyidan keyin XIX asrda Xorazmda Ogahiy, XX asrning boshlarida Toshkentda Murod Xoja Solih Xoja o‘g‘li tomonidan ham o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Sa’diyning kitobi maxsus muqaddima qismi bilan yozilgan. “Guliston bit-turkiy” esa 1968-yilgi nashrida muqaddima qismi bilan, 1986-yilgi

nashrida muqaddima qismisiz nashr qilingan. Shu sababdan ham hozirgi qiyosiy tahlilimiz jarayonida kitobning 1968-yilgi nashriga tayanamiz. Sadiy Sheraziy “Guliston”ning debocha qismini kitobning yozilish sababi deb nomlaydi. Asar Sa’diyning bir kuni tunda behuda ketgan umriga afsus nadomatlar chekayotganligi, endigi umrini esa faqat toat-ibodatga sarflamoqchi ekanligi va bu holni she’riy tasvirlash uchun keltirilgan 12 baytli ushbu masnaviy bilan boshlanadi:

Har damda umrdan nafas o’tadi,
Bir qiyo boqquncha yitib ketadi!
Uyquda o’tganday o’tdi ellik yil,
Qolgan besh kun umr qayg‘usin qilgil.¹

“Guliston bit-turkiy”ning debocha qismi esa Allohga hamd bilan boshlanadi, Tangi Taolo bandaga bergen rizqni g‘aflat bilan yemaslik va unga shukrona aytish kerakligi ta’kidlanadi. Alloh hamdi bayonida nasriy fikrlarni izohlash uchun bitta fard, 5 baytlik masnaviy va ikkita qit’a keltiriladi:

Doim ishta falaku oyu, kunash, elu bulut,
Toki g‘aflat bila ne’mat yemagaysan, ey jon,
Yugurur jumla sening nafing uchun amr tutub,
Sharti insof degul, tutmasang oxir farmon.²

Undan so‘ng Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) nomlari zikr qilinadi. Hadisi sharifdan iqtiboslar keltiriladi. So‘ng bog‘da shoirlar bilan insho ilmida bahs qilib o‘tirishganda shoirlardan biri unga Gulistonni tarjima qilish maslahatini bergenligi haqida yozadi: “Ey adibi g‘arib, senga bir muvofiq naihatim bor. Qabul qilsang, hayr bo‘lg‘ay”. Ayttim: “Buyuring”. Aytti: “Shayx Sa’diy Gulistonini turkiy tarjima qilsang, bir sohib-davlat er otina, yodgoring jahonda qolsun deb”³. Saroyi tarjimaga bel bog‘laganini ta’kidlar ekan, asar tarkibidagi eng katta 30 baytlik masnaviyini keltiradi. Kitobning nega Guliston deb nomlanganini va tarjima asar ekanligini ham shu masnaviyda izohlab o’tadi:

Turkiyga qaytib ajamdan bu kitob,
Ma’rifatka ochti sakkiz turli bob.
Tekma bir jong‘a mufarrah bo‘lmag‘a,
Tekma xotirni musharraf qilmag‘a⁴

Sa’diy Sheraziy kitobning yozilish tarixi bayonida davom etarkan hujrasiga g‘am kajavasida xamroh, dilxoh do‘sti kirib kelganligi va do‘stining qolgan umrini toat ibodatda o‘tkazmoqchi ekanini eshitib ushbu so‘zlarni aytganini yozadi: “Oqillar

¹ Sa’diy, “Guliston. Bo’ston”.-Toshkent.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021, 12-b.

² Sayfi Saroyi “She’rlar.Guliston”.- Toshkent.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1968, 42-b.

³ Sayfi Saroyi “She’rlar.Guliston”.- Toshkent.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1968, 45-b.

⁴ Sayfi Saroyi “She’rlar.Guliston”.- Toshkent.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1968, 46-b.

nazdida Alining qilichi g‘ilofida va Sa’diyning tili komida, harakatsiz turmog‘i mantiqdan xorijdir”. Bu so‘zlarni eshitgan Sa’diy do‘stiga so‘zlamay turolmaydi va u bilan so‘zlashib shahar tashqarisidagi do‘stining bog‘iga yo‘l olishadi. U yerda esa Sa’diy do‘stining etagidagi gullarni ko‘rib: “Gulning baqosi, gulistonning esa vafosi yo‘qtur, har nimarsaki, bevafodir- muhabbat qo‘yishga noravodur “ deganida do‘stining “Xo‘s sh unda tadbir nimadir?” degan savoliga “Mutolaa qilganlarga safo, tinglaganlarga shifo baxsh etadigan “Guliston” nomli kitob yozishim mumkin”¹, - deb bergen javobidan so‘ng do‘sti etagidagi gullarni yerga to‘kib, Sa’diyning etagiga yopishganini va quyidagicha xitob qilganani aytadi: “Karam sohibi bo‘lgan odam va’da berdimi, va’dasiga vafo qilmog‘i lozim”. Sayfi Saroyi “Guliston”ni ayni shu nuqtadan tarjima qilib boshlagan. Faqat bu holat tarjimada boshqacharoq holda berilgan. Bir odam Bo‘s stonga borib kelgandan so‘ng undan do‘stlari u yerdan bizga nima tuhfa olib kelding deb so‘rashadi shunda u javob beradi: ”Xotirimda bor edikim qachon gul ag‘ochlarina yetsam, bir etak gul yoronlareg‘a hadiya kelturgayman. Gul ag‘ochlarina yettim esa, Guliston isi meni aning kabi esruttkim, etakim, elimdan tushti”.

Sadiy Sheroziy shundan so‘ng o‘sha vaqtdagi fors podshosi Abu Bakr ibn Abu Nasr ta’rifiga bir necha og‘iz so‘z aytib, o‘zining saroydan nega uzoqlashgani bayonini keltiradi. Saroyi tarjimasida bu o‘rinlar tushurib qoldirilgan. Shundan so‘ng Sa’diy kitobini o‘qiguvhchilar zerikib qolmasligi va maqsadni muxtasasar ifodalamoqqa urg‘u bergani uchun sakkiz bobga ajratganini aytadi. Sayfi Saroyi tarjimasida ham ushbu sakkiz bob nomlari va ketma-ketligi o‘zgarishsiz saqlangan.

T/R	“Guliston” boblari	“Guliston bit-turkiy” boblari
1.	Podshohlar odati bayoni	Salotin siyrati ichinda turur
2.	Darveshlar axloqi bayoni	Fuqaro axloqi ichinda turur
3.	Qanoatning fazilati bayoni	Qanoat fazilati ichinda turur
4.	Sukut saqlashning foydalari bayoni	Sukut foydasi ichinda turur
5.	Ishq va yoshlik bayoni	Ishq dag‘i yigitlik sifati ichinda turur
6.	Zaiflik va keksalik bayoni	Qariliq dag‘i zaiflik sifati ichinda turur
7.	Tarbiyaning ta’siri bayoni	Tarbiyat ta’siri ichinda turur
8	Suhbat qoidalari bayoni	Suhbat adablari ichinda turur

Sayfi Saroyi ham, Sa’diy Sheroziy ham asarlarining debocha qismida nasr va nazmga birdek murojaat qilishgan. Ikkala debochada she’riy janrlarning qo‘llanilishi quyidagicha:

¹ Sa’diy, “Guliston. Bo‘sston”.-Toshkent.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021, 15-b.

T/R	Asr nomlari/ she'r turlari	“Guliston”	“Guliston bit-turkiy”
1.	Masnaviy	6	3
2.	Qit'a	8	4
3.	Fard	2	1
4.	Ruboiy	1	-

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Guliston bit-turkiy” asarining debocha qismi ancha erkin yozilgan. She’riy janrlarning birortasi ham “Guliston”da keltirilgan she’rlarning tarjimasi emas. Nasriy hikoyalardan ham faqatgina gul va gulzor voqeasi gullarning vaqt o‘tib so‘lishi, ammo Gulistondek bir kitob vaqtlar o‘tsa ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligi g‘oyasi saqlangan holda erkin tarjima qilingan. Ikkala debochada ham g‘oyaviy jihatdan Alloh bergen umrga va ne’matlarga shukr qilmoqlik kerakligi ta’kidlab o‘tilgan. Sa’diyning an’ansini buzmagan holda Saroyi ham boblar tartibini muqaddima qismida snab o‘tgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sa’diy, “Guliston. Bo‘ston”.-Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
2. Sa’diy, “Guliston”.-Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
3. Sayfi Saroyi “She’rlar.Guliston”.- Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1968.
4. Sayfi Saroyi “She’rlar.Guliston”.- Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1986.